

Latipova Umida Yusufboyevna,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti
E-mail: bexruzshox482@gmail.com

TALABALARDA IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYASI NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK MEZONLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasi namoyon bo'lishining ilmiy nazariy psixologik asoslari, ijodiy faollikni aniqlash mezonlari va ularning ko'rsatkichlariga oid tahlil va mushohadalarga bag'ishlangan. Xususan ijodiy faollikning faktorli mezonlanlari «yangilik hissi», «tanqidiylik», «Obyektning tuzilishini o'zgartirish qobiliyati», «ijodkorlikka yo'nalganlik», O'z-o'zini baholash (nazorat so'rovnomasi) mezonlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Yangilik hissi, faollik, ijodkorlik, kreativlik, tanqidiylik, motivatsiya, o'z-o'zini baholash.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ МОТИВАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье посвящена анализу и наблюдениям за научно-теоретическими психологическими основами мотивации творческой деятельности студентов, критериями определения творческой активности и их показателями. В частности, описаны факторные критерии творческой деятельности «чувство новизны», «критичность», «способность к изменению структуры объекта», «направленность к творчеству», критерии самооценки (контрольный опросник).

Ключевые слова: чувство новизны, активность, творчество, креативность, критичность, мотивация, самооценка.

PSYCHOLOGICAL CRITERIA FOR MOTIVATION OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY

Abstract

In this article is devoted to the analysis and observations of the scientific and theoretical psychological foundations of the motivation of students' creative activity, the criteria for determining creative activity and their indicators. In particular, the factor criteria of creative activity "sense of novelty", "criticality", "ability to change the structure of an object", "orientation towards creativity", self-assessment criteria (control questionnaire) are described.

Keywords: sense of novelty, activity, creativity, creativity, criticality, motivation, self-esteem.

Kirish

Respublikamizda yoshlarning o'zini o'zi anglashi, milliy g'ururga ega bo'lishi, yuksak ideallarga intiluvchi va mehnatsevar, iymonli va insofli, o'tmish ajdodlar va

keksalarga nisbatan izzat-hurmatli hamda yurt taqdirini o'z taqdiri bilan bog'liq deb hisoblovchi shaxs sifatida tarbiyalashning meyoriy asoslari yaratilmoqda. Bu borada talabalardagi ijodiylik motivatsiyasi bilan talabaning intellekti o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Inson ijodiy faolligi haqida tarixan shakllangan qarashlar tahlilidan ma'lum bo'lyaptiki, qadimgi Yunon mutafakkirlari (Arastu, Demokrit, Platon, Fales va boshq.) ijodkorlikni intuitsiyani ichki ko'rish xususiyati, aqlning oliy qobiliyati sifatida ko'rib chiqishgan. Intuitsiya fenomenini o'rganishda asos soluvchi g'oyalarni B.Spinoza, R.Dekart, I.Kant, V.F.Asmus, A.Bergsonda uchramiz. Intuitsiya muammosi bilishning falsafiy nazariyasida ko'ndalang qo'yilgan bo'lib, odatda, bilishning ikki turi dixotomiyasi sifatida talqin etilgan: intuitiv, bevosita, isbotga tayanmagan va ratsional, bilvositalashgan dalil bilan bog'langan [2],[4], [5], [9]. Ye.P.Torrens subyektlarning muayyan namunasini sinab ko'rishda muayyan javoblar yuzaga keladigan chastota bo'yicha originallikni aniqlash usulini ishlab chiqdi [6]. Shaxs psixologiyasi S.L. Rubinshteynning faoliyat psixologiyasi maktabida, ijodiyot psixologiyasi (Y.A. Ponomarev, D.B. Bogoyavlenskaya, S.P. Beznosov va boshq) [1], [3], [7], [8] doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar diqqatga sazovor.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.


Tahlil va natijalar

Tadqiqotimiz natijalarining empirik jihatdan tahlilini quyidagicha amalga oshiramiz. Buning uchun eng avvalo, talabalarda ijodiylik motivatsiyasi namoyon bo'lishini o'rganishga doir dastlabki miqdoriy tahlillar (o'rtacha qiymat va korrelyatsiya koeffitsientlari) umumiy holatni aks ettirgan xususiy holatlar, ya'ni ijodiylik motivatsiyasining shaxsiy kamolot darajasini belgilashdagi o'rni xususida to'xtalib o'tamiz.

Endi, talabalarda ijodiylik motivatsiyasi namoyon bo'lishining umumiy sharhiga to'xtalib o'taylik. Birinchi navbatda ularning "yangilik hissi" mezoniga murojaat qilinadi. Talabalarining bu shkala bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari yigitlarda (n=195) 40,5 tani, qizlarda (n=175) esa 37,7 taga teng bo'ldi. Bu holat o'z navbatida talabalarining ham ma'naviy, ham jismoniy, ham ijtimoiy-psixologik jihatdan yangilikka intilishini ta'minlaydiki, bunda yoshlar har qanday yangi narsani kashf etishga qaratilgan izlanishlarini hamda o'z faoliyatlarida sinab qo'rishlariga qiziqishlaridan darak beradi. Aslida har qanday yangilik shaxs hayotida muhim o'rin egallaydi va uning yaxlit shaxs sifatidagi yo'nalishini ham belgilaydi. Demak, talaba-yoshlarimizda shakllantirish bu pedagoglarning, oilaning, umuman jamiyatning oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Darhaqiqat, yoshlarimiz uchun o'z manfaat va qiziqishlarini yangilikka intilish bilan boyitish orqali ma'naviy yetuk insonlarni tarbiyalashimiz muhim. Chunki, jamiyatdagi ijtimoiy- ma'naviy tarbiya bu talabalar psixologik ongi, shaxsiy-ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi kuchli maktabdir. Bunda yoshlar ongida yangilikka intilish

tushunchasi, rivojlanayotgan mamlakatimizda o‘z bilimlarini yanada chuqurroq anglash hissi, butun dunyoda o‘z vatani bayrog‘ini ko‘tarish istagi, vatanparvalik hissi uyg‘otadi.

Faktorli ijodiy faollik metodikasi yordamida qo‘lga kiritilgan natijalarning yigitlar va qizlardagi o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichlari (n=370)



Talabalarining “tanqidchilik” mezon bo‘yicha ko‘rsatkichi (yigitlarda 51,3, qizlarda esa 45,5) esa ularni turli xil vaziyatlarni yaxshi anglashga, insonlar orasidagi murakkab vaziyatlarni to‘g‘ri baholashga, o‘z-o‘zini va atrofdagilarni adekvat baholash shuningdek o‘rni kelganda o‘zgalar fikrini rad eta olish murakkab vaziyatlarni muloqot ishtirokchilarini ishtirokiga qarab tanqidiy tahlil qila olish qobiliyatini o‘stirishga imkoniyatlari borligini ko‘rsatmoqda (2.1-jadvalga qarang).

Talabalarda ijodiylik motivatsiyasi namoyon bo‘lishini baholovchi navbatdagi shkala “Obyektning tuzilishini o‘zgartirish qobiliyati” mezon bo‘lib, u bo‘yicha talabalar ko‘rsatkichi yigitlarda 51,3, qizlarda esa 45,5 ball qiymatiga ega bo‘ldilar. Bu ball talabalarda obyektning asosiy xususiyatini aniqlash va shunga qarab o‘z maqsadlarini belgilash va bu obektlardan foydalanishning noananaviy yangicha bir usullarini yaratish va taklif qilish qobiliyatini aks ettiradi. shaxslararo vaziyatlarni yaxshi anglashga, insonlar orasidagi murakkab vaziyatlarni tahlil eta olishga, ularning rivojlanishini mantiqan tushunishga, murakkab vaziyatlarni muloqot ishtirokchilari faolligiga qarab baholash qobiliyatini o‘stirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular muomaladagi real vaziyatdan kelib chiqib, uning nima bilan yakunlashini baholay olishlari, ba‘zan kutilmagan, noodatiy holatlarda, hatti-harakatlarni prognoz qilishda yanglishishlari mumkinligi, qo‘ygan maqsadga erishishda o‘z rejalarini puxta ishlab chiqishlarini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Nazariy manbalarni o‘rganishda bayon etilgan tahlilarda, talabalarining faoliyati davomida namoyon bo‘ladigan ijodiylik motivatsiyasining o‘ziga xos o‘rin tutishini aytib o‘tish mumkin. Talabalarda ijodiylik motivatsiyasi namoyon bo‘lishining yana bir o‘ziga xoslik tarzda ifodanalayotgan “ijodkorlikka yo‘nalganlik” qobiliyatidir. Bu borada talabalarda ijodkorlikning umumiy ko‘rinishi

quyidagicha(yigitlarda 51,3, qizlarda esa 45,5), ya'ni boshqa mezon natijalariga qaraganda ozroq quyi qiymat aks etganligidir. Bu esa talabalarda har xil murakkab vaziyatlarda doimo o'zlarini to'g'ri boshqara olmasliklari, frustratsiyaga berilishlari va o'z maqsadlari yo'lida har qanday qiyinchilikni sabr-matонат bilan yenga olish, shuningdek turli vaziyatlarda muammoni yecha olish, jasorat va matонат belgilari yetarlicha shakllanmaganligining guvohi bo'lindi, ularning chidab ularda har qanday muammoni hal qila olishlari qiyin.

O'z-o'zini baholash (nazorat so'rovnomasi) mezonini bo'yicha esa talabalarda (yigitlarda 51,3, qizlarda esa 45,5), shaxslararo munosabat xarakteriga ko'ra, bir-biri bilan suhbatlashadigan insonlarni tez va yaxshi tushunishga moyilliklari, ularda estetik va axloqiy tarbiyaning sifatleri shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. O'ylaymizki, ushbu qobiliyat talabalar uchun nafaqat insonlar bilan munosabat, balki fan doirasida o'quvchilarning bildiradigan fikr-mulohaza va munosabatlariga qarab ham ularning shaxsiga xos ta'riflar bera olishlaridan dalolat beradi.

Xulosa

Shunday qilib, tadqiqot natijalarimiz talabalar ijodiy motivatsiyasi va dunyoqarashi ularning amaldagi ijtimoiy xulqiga ta'sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarning o'rnini isbotladi va ularda ijodiy faoliyat motivatsiyasi mavjudligi ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ahamiyati ko'rib chiqildi. Talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasining shakllanishi bizningcha, kelajakda davlatimiz taraqqiyotini yanada yuksak pog'onalarga eltuvchi ruhan kuchli, ma'naviy barqaror bo'lgan yoshlarni tarbiyalash imkonini beradi. Shunday qilib, biz tanlagan metodikalar eng avvalo, obyektivlik, validlilik, ishonchlilik talablariga javob berishi bilan birgalikda tanlangan obyektning anchagina katta ekanligi, ko'plab metodikalarning juda katta auditoriyalarda dastlabki sinovlardan o'tkazilganligi, obyektning reprezentativligi, ya'ni, tadqiqot maqsadiga aynan javob berishi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Безносков С.П. Профессиональная деформация личности. СПб.: Речь, 2004. – 272 с.
2. Бергсон А. Собрание сочинений. СПб., 1914. - Т. 5. - С. 7-8.
3. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. - Ростов-на-Дону, 1983. -173 с.
4. Декарт Р. Сочинения в двух томах. Том 1.- М.: Мысль, 1989
5. Кант И. Трактаты и письма (Вступит. ст. А.В. Гулыги) - М., Наука, 1980.
6. Торренс у А. Новые рубежи человеческой природы /Пер. с англ. -М.: Смысл, 1999. - 425 с.
7. Пономарев Я.А, Психология творчества. - М.,1976. - 280 с.
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: «Питер», 2000, – 172 с.
9. Спиноза, Б.Б. Спиноза Избранные произведения / Б. Спиноза. - М.: Книга по Требованию, 2014. - 357 с.